



**TOSHKENT SHAHAR  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-IYUL**



2023- yilning yanvar-iyul oylarida, Toshkent shahrida jami 19 371,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 100,2 % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2023- yil 1-avgust ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



3 415

Bino va inshootlar  
qurish

680

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

2 915

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 75,3 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 48,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 73,3 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,6 foiz ulushni va 74,2 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.






## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.08.2022- y.	01.08.2023- y.	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>9 313</b>	<b>7 010</b>	<b>75,3</b>

tumanlar:

Bektemir	214	173	80,8
Mirzo Ulug'bek	1176	928	78,9
Mirobod	857	621	72,5
Olmazor	769	517	67,2
Sergeli	505	433	85,7
Uchtepa	658	431	65,5
Chilonzor	1187	835	70,3
Shayxontohur	733	511	69,7
Yunusobod	1144	841	73,5
Yakkasaroy	941	722	76,7
Yangihayot	245	236	96,3
Yashnobod	884	762	86,2



# 2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Mirzo Ulug'bek (13,2)



Yunusobod (12,0)




Chilonzor (11,9)



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Toshkent shahar</b>	<b>19 371,7</b>	<b>4 608,3</b>	<b>13 068,0</b>	<b>1 695,4</b>
<b>tumanlar:</b>				
Bektemir	580,9	152,8	369,8	58,3
Mirzo Ulug'bek	2278,9	510,4	1523,9	244,6
Mirobod	2690,3	820,7	1714	155,6
Olmazor	1490,1	437,5	910,9	141,7
Sergeli	864,1	114,0	553,7	196,4
Uchtepa	812,0	167,0	519,3	125,7
Chilonzor	1960,6	503,2	1350,6	106,8
Shayxontohur	1564,9	432,0	998	134,9
Yunusobod	2483,4	596,3	1736,1	151,0
Yakkasaroy	2281,5	550,9	1605,8	124,8
Yangihayot	895,9	207,7	581,3	106,9
Yashnobod	1469,1	115,8	1204,6	148,7




2023- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4 608,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 68,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2023- yil yanvar-iyul oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mirobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,5 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 124,0 %) Olmazor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 29,4 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 223,9 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,5 %i to'g'ri kelib, 2022-yil yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan 9,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ni tashkil etgan holda 13 068,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



67,5

2023- yil  
yanvar-iyul


58,0

2022- yil  
yanvar-iyul



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Yunusobod tumanida 1736,1 mlrd. so'm yoki ulushi 13,3 %) Mirobod tumanida ( 1 714 mlrd. so'm yoki ulushi 13,1 %), va Mirzo Ulug'bek tumanida (1 523,9 mlrd. so'm yoki ulushi 11,7 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 8,7 %ni tashkil etdi yoki 1 695,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 121,6 % ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 485,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 18 886,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,5 % va 97,5 % ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-iyul oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **57,4 %** i yoki **11 112,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**24,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **2 770,3** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **24,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **7 504,7** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,5 %** ni tashkil etdi.

**67,5 %**

**7,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **837,6** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **7,6 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylarida


	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>19 371,7</b>	<b>100,2</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:			
Bektemir	580,9	100,9	3,0
Mirzo Ulug‘bek	2278,9	120,9	11,8
Mirobod	2690,3	117,7	13,8
Olmazor	1490,1	136,6	7,7
Sergeli	864,1	119,9	4,5
Uchtepa	812,0	71,0	4,2
Chilonzor	1960,6	90,4	10,1
Shayxontohur	1564,9	100,4	8,1
Yunusobod	2483,4	66,5	12,8
Yakkasaroy	2281,5	129,8	11,8
Yangihayot	895,9	108,8	4,6
Yashnobod	1469,1	93,2	7,6



*Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*



# Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,4 % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyuldagi ko'rsatkichga nisbatan 13,6 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,1 % punktga ko'payib, 64,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,7 % punktga ko'paydi, 13,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 30,3 % ni tashkil etdi va 2022- yil yanvar-iyulga nisbatan 15,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 69,7 % (15,9 % punktga ko'payish) ni tashkil etdi.

## ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar


Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-iyul

2023- yil yanvar-iyul



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi va 25,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 74,6 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,6 % punktga kamaydi.








## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul

	Qurilish ishlari, mrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Toshkent shahar</b>	<b>19 371,70</b>	<b>12 255,9</b>	<b>3 595,2</b>	<b>3 520,6</b>
tumanlar:				
Bektemir	580,9	345,4	98,4	137,1
Mirzo Ulug'bek	2 278,9	1 691,2	548	39,7
Mirobod	2 690,3	1 861,5	359,4	469,4
Olmazor	1 490,1	1 032,6	212,9	244,6
Sirg'ali	864,1	532,5	144	187,6
Uchtepa	812	394,2	148,6	269,2
Chilonzor	1 960,6	1 248,8	283,1	428,7
Shayxontohur	1 564,9	908,7	230,5	425,7
Yunusobod	2 483,4	1 715,6	575,2	192,6
Yakkasaroy	2 281,5	1 214,5	513,8	553,2
Yangiayot	895,9	275,5	91,0	529,4
Yashnobod	1 469,1	1 035,4	390,3	43,4

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul



ulushi % da



■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ■ Fuqarolik obyektlarini qurish ■ Bino va inshootlarni qurish



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Mirobod tumani ( 2 690,3 mlrd.so'm), Yunusobod tumani 2 483,4mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (2 281,5 mlrd.so'm),Mirzo Ulug'bek tumani(2 278,9 mlrd so'm) ga to'g'ri keladi



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)